



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

TURIZM SOHASIDA O'ZLASHGAN SO'ZLARNING LINGVISTIK TAHLILI

Abduxalilova Gulbahor Karabayevna

Uzbekiston davlat jahon tillari universiteti Ingliz tili funksional leksika kafedrasida katta o'qituvchisi
abdukhilovagulbahor@gmail.com

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15179228>

Annotatsiya: Ushbu maqola turizm sohasidagi o'zlashgan so'zlarning lingvistik tahliliga bag'ishlangan bo'lib, maqolaning kirish qismida muallif o'zga tillarning ta'sirida o'zbek tili turizm sohasining lug'at qatlami boyib borishi, o'zlashmalarning lingvistik xususiyatlarini o'rgangan olimlarning fikrlari haqida mulohaza yuritadi. Maqolaning asosiy qismida, ingliz va o'zbek tillarida turizm sohasiga oid leksik qatlamda o'zlashma terminlarning ma'nolari izohlangan. Misollar bilan boyitilgan. Maqolaning xulosa qismida ingliz tilidagi turizm leksikasining etimologiyasini tahlil qilish barobarida ularning ko'pchiligi ingliz tiliga asosan fransuz, italyan, arab va fors tillaridan kirib kelganligi, turizm sohasi termin tizimining tadqiq qilinayotgan segmentida o'zbek tilining zaxirasidan hosil bo'lgan hamda boshqa tillardan o'zlashtirilgan terminlar mavjudligi leksik qatlamning barcha sathlarida bo'lgani kabi, ushbu soha terminologiyasining taraqqiyotida ham ahamiyatli ekanligi aytilgan.

Kalit so'zlar: o'zlashmalar, kalkalash, gibrid so'zlar, leksik qatlam, o'zlashma terminlar, assimilyatsiyalashgan so'zlar, morfologik ko'rsatkichlar, turizm terminlari.

Kirish. Ma'lumki, bugungi kunda turli xalqlarning o'zaro aloqasi o'ziga xos madaniy fenomen hisoblanadi. O'zga tillarning ta'sirida o'zbek tili turizm sohasining lug'at qatlami boyib borishiga sabab bo'lmoqda. Darhaqiqat, boshqa tillardan kirib kelgan so'zlar hisobiga o'zbek tilining lug'at boyligi oshib borgan va bormoqda. O'zlashma so'zlar saqlanib qolgan hamda uzoq vaqtlar mobaynida sayqallanib borgan. Bugungi kunda turizm sohasidagi o'zlashmalar hisobiga ushbu sohada yangi lug'aviy qatlam shakllanmoqda.

Ingliz tili dunyoning boshqa tillaridan so'zlarni o'zlashtirishi hisobiga lug'at boyligining ko'lami bo'yicha eng yuqori o'rinda turuvchi tillardan biridir. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, zamonaviy ingliz lug'atlaridagi sof inglizcha so'zlar 30 foizni tashkil qilsa, qolgan 70 foizi boshqa tillarga to'g'ri keladi¹.

O'zlashmalarning lingvistik xususiyatlariga qaraydigan bo'lsak, olimlar tomonidan asosan uning turlariga to'xtalib o'tilgan. Rus tilshunos olimi S.V. Grinev-Grinevich ularning uch turini ko'rsatadi:

¹ Атажанова, З. М. The main sources of enriching English vocabulary in the course of historical development / З. М. Атажанова, А. П. Макашева, Тураш Дадикбай. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2021. — № 4 (346). — С. 298-300. — URL: <https://moluch.ru/archive/346/77762/> (дата обращения: 29.04.2024).



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

1. Moddiy yoki to'g'ridan-to'g'ri, "original" o'zlashma: so'zning moddiy (tovushli yoki grafik) shakli va mazmuni o'zlashadi. Uning turlari: leksik, formal, morfologik;

2. Kalkalash: so'zning faqat semantik tuzilishi o'zlashadi. Uning turlari: so'z yasovchi, semantik, frazeologik;

3. Aralash o'zlashtirish yoki gibridlar: leksemaning bir qismi o'zlashtiriladi, ikkinchisi tarjima qilinadi yoki tilda mavjud bo'ladi. Uning turlari: yarim kalka va yarim o'zlashmalar².

Tadqiqot jarayonida, o'zbek tilidagi turizmga oid terminlar ichida ko'plab gibrid terminlarni uchratdik. "Gibrid" so'zi keng ma'noda turli til elementlaridan tashkil topgan "dug'ay" so'zlardir³.

Masalan, *aviachipta, aviaqatnov, avtomat xizmati, avtodo'kon, internet-arizachi, avtoxalokat, import mahsulot, brend mol, elektron buyurtma, elektron chipta, biznes hamkor, marketing bo'limi, skuter ijarasi, video aloqa, standart xona, bosh ofis, fitnes mashg'uloti, spa muolajasi, ijtimoiy turizm, turizm bozori, on lain xizmat ko'rsatish, on lain ro'yhatdan o'tish, tranzit yo'lovchi, transfer xizmati, hamkorlik ofisi, port shahar, velnes markazi, suv parki, gidrouqalash, kapsula mehmonxona, turizm qishlog'i, turizm maxallasi, co-working markazi.*

Ko'rib turganimizdek, boshqa tillardan o'zlashtirilgan terminlar ma'lum bir lingvistik xususiyatlarga ega. O'zbek leksikolog olimlar U.Tursunov, J. Muxtorov, Sh. Raxmatullayev o'zlashma terminlarning quyidagi xususiyatlarini ajratishadi:

a) chet tilidagi so'zning o'zlashtirayotgan tildagi grafik va fonetik vositalar bilan ifodalanishi;

b) o'zlashma so'zning o'zlashtirayotgan til grammatik shakl va kategoriyalari bilan uyg'unlashishi;

v) o'zlashmaning semantik mustaqilligi;

g) o'zlashma terminning muayyan terminologik sistemada doimiy ravishda qo'llanilishi⁴.

Ta'kidlash o'rinliki, turizm sohasi terminologiyasida so'z o'zlashtirish usuli juda muhim o'rin tutadi. Umuman olganda bu usul soha terminologiyasi shakllanishining asosiy manbalaridan biri hisoblanadi.

²Володина М.В. Терминологическая номинация и информационная картина мира // Научно-техническая терминология (научно-технический реферативный сборник). – М., 1996. Выпуск 1. – С.54-61.

³ Мирсагатова Д.У. Ўзбек темир йўл транспорти атамаларининг тематик гуруҳларини ўзига хос хусусиятлари // Academic research in educational science. Volume 2. Issue 12. 2021. ISSN:2181-1385.

⁴ Турсунов У., Мухторов Ж., Рахматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Лексикология. Фонетика. Морфология. – Тошкент: Ўқитувчи, 1975. – Б. 46.



XORIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

O'zlashmalar borasida F.A. Akbarxodjayeva quyidagilarni keltiradi: "... o'zlashtirayotgan tilda u yoki bu mavzuiy soha, professional muhitga xizmat ko'rsatuvchi va ushbu terminlar o'zlashtirilishi manbasi bo'yicha muayyan darajada termin tizimi mavjud bo'lishi ham zaruriy omil hisoblanadi. Ma'lumki, terminologik leksika o'zlashtirmalar borasida sezilarli o'tkazuvchan qatlamdir. Bundan tashqari, o'zlashmalar leksik birlikning etimologiyasi va uning boshqa xususiyatlari, ya'ni ifoda rejasi (morfologik tuzilishi) hamda mazmun rejasi (ko'pma'nolilik darajasi) bilan ham bevosita bog'liq"⁵.

Asosiy qism. Boshqa tillardan o'zlashgan so'zlarni yillar davomida ingliz tili strandartlariga to'liq moslashib ketgan o'zlashmalar guruhi to'liq assimilyatsiyalashgan so'zlar deb ataladi⁶. Bunday to'liq assimilyatsiyalashgan so'zlarni turizmning hordiq, oziq-ovqat sanoati va restoran biznesida ham uchratish mumkin. Ular asosan nemis, fransuz, italyan va ispan tillaridan o'zlashgan⁷:

Xususan, o'zbek tiliga quyidagi tillardan o'zlashgan terminlarning salmog'i yuqori bo'lib, bu terminlar asosan jadvalda ko'rsatilgan tillardan o'zlashgan. [Qarang: 1-jadval]

<i>Arab</i>	<i>Fors</i>	<i>Ingl.</i>	<i>Frans.</i>	<i>Ital.</i>
Sayohat (سفر - safar)	Mehmonxona (مهمانخانه - mehmonkhāna)	Turizm (tourism)	Restoran (restaurant)	Alfresko (alfresco)
Mehmon (ضيف - zayf)	Sayr (سير - sayr)	Keytering (catering)	Galereya (galerie)	Kazino (casino)
Mehmon (ضيف - zayf)	Sayr (سير - sayr)	Keytering (catering)	Galereya (galerie)	Kazino (casino)
Muzey (متحف - mathaf)	Saroy (سرای - sarāy)	Hostel (hostel)	Bagaj (bagage)	Graffiti (graffiti)
Aeroport (مطار - maṭār)	Ko'cha (كوچه - kuche)	Viza (visa)	Fors major (force majeure)	Opera (opera)
Madaniyat (ثقافة - thaqāfa)	Musofir (مسافر - musāfir)	Aeroport (airport)	Pasport (passeport)	Tarif (tariff)
Viza (تأشيرة - viza)	Manzil (منزل - manzil)	Tiket	Shato (château)	Parad

⁵ Akbarxodjaeva F.A. Kўrsatilgan dissertatsiya. – B. 23.

⁶ Шербоев Н. Инглиз тилидаги шарқ тилларидан ўзлашган сўзларнинг семантик хусусиятлари //Экономика и социум. № 6 (86),1.2021. – Б. 257.

⁷ Айрапетян, А. Г. Испанские заимствования в английском языке / А. Г. Айрапетян, А. А. Пронькина. - Текст: непосредственный // Молодой ученый. - 2016. - № 7 (111). - С. 1132-1134. - URL: <https://moluch.ru/archive/111/27670/> (дата обращения:19.03.2023). Элдоров А. М. Итальянское заимствования в современном английском языке. Текст. Автореферат. УДК 802.0:801.316.3. Россия.1984. Мжельская О.К. Английский язык как источник реципиент лексических заимствований //Филологические науки. УДК 811.111. Россия 2017. – С. 60-64. Соколова А.А. Французское заимствование в английском языке //Цифровая наука,УДК 81.№ 4.Россия 2021. – С. 21-24.



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

ta'shira)	manzil)	(ticket)		(parade)
Suv (ماء - mā')	Rohat (راحت - rāhat)	Kemping (camping)	Voyaj (voyage)	Riv'era (riviera)
Mehmonxona (فندق - funduq)	Sayohat (سفر - safar)	Turist (tourist)	Tur (tour)	Arxipelag (Archipelago)
Xarita (خريطة - kharita)	Gulzor (گلزار - gulzār)	Otel (hotel)	Eskursiya (excursion)	Studiya (studio)
Tashkilot (منظمة - munazama)	Gulxona (گلخانه - gulkhāna)	Rezort (resort)	Turizm (tourisme)	Vulkan (volcano)

1- jadval. O'zbek tiliga o'zlashgan terminlar

O'zbek tili turizm sohasiga oid leksik qatlamida o'zlashma terminlarning ma'nolarini izohlaymiz:

Tour operator (Turoperator) – turistik xizmatlarni tashkil etuvchi va ular orqali foyda oluvchi kompaniya yoki shaxs. Turoperatorlar turistik marshrutlar, turar joy, transport va boshqa xizmatlarni taklif etadi: *The tour operator organized a comprehensive 10-day itinerary, including guided city tours, museum visits, and cultural experiences, ensuring travelers had an unforgettable adventure in Uzbekistan.*

Voucher (Vaucher) – turistik xizmatlar uchun to'lov qilinganini tasdiqlovchi hujjat. Bu hujjat mijozga xizmatlardan foydalanish huquqini beradi: *The couple received a travel voucher as a gift, which they used to book a romantic getaway to the scenic mountain resorts of Chingan.*

Resort (Rezort) – dam olish maskani, odatda turar joy, dam olish va ko'ngilochar xizmatlarni o'z ichiga oladi. Resortlar ko'pincha plyajlarda, tog'larda yoki tabiatning go'zal joylarida joylashgan bo'ladi: *The resort offered an array of amenities, including a private beach, multiple swimming pools, gourmet restaurants, and a spa, making it the perfect destination for a relaxing and luxurious vacation.*

B&B (Bed and Breakfast) – mehmonxonada yoki turar joyda kechasi turish va ertalab nonushta qilishni o'z ichiga olgan xizmat turi: *The quaint B&B in the heart of the old town offered cozy rooms and a delicious homemade breakfast each morning, providing a perfect start to the guests' day of sightseeing.*

Shuningdek, ingliz tili turizm sohasiga oid leksik qatlamida o'zlashma terminlarning ma'nolarini izohlaymiz:

Travel Insurance (Sayohat sug'urtasi) – sayohat bilan bog'liq xavflar va yo'qotishlardan himoya qiluvchi sug'urta turi, masalan, safar bekor qilinishi, tibbiy xarajatlar, yo'qolgan yuk va boshqa favqulodda holatlar: *Before departing for their international trip, the family purchased travel insurance to cover any unexpected medical emergencies, trip cancellations, or lost luggage during their vacation.*



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

Homestay (Mehmon uyida yashash) – sayohatchilar mahalliy oila bilan birga ularning uyida yashab, mahalliy madaniyat va hayot tarzini tajriba qilish imkonini beruvchi turar joy turi: *During their visit to rural Uzbekistan, the travelers enjoyed a homestay with a local family, immersing themselves in the traditional lifestyle and experiencing authentic local cuisine and customs.*

Hostel (Xostel) – arzon turar joy turi bo'lib, odatda umumiy xonalar va xizmatlar taqdim etiladi. Bu turar joy turi asosan yigit-qizlar va yosh sayohatchilar orasida mashhur: *The young backpackers chose a hostel for their stay in Berlin, appreciating its budget-friendly rates, communal spaces, and opportunities to meet fellow travelers from around the world.*

Guided Tour (Yo'l boshlovchi bilan ekskursiya) – yo'l boshlovchi tomonidan boshqariladigan ekskursiya bo'lib, yo'l boshlovchi tashrif buyurilgan joylar haqida ma'lumot va sharhlar beradi, sayohat tajribasini tarixiy va madaniy bilimlar bilan boyitadi: *The group signed up for a guided tour of the ancient city of Samarkand, where a knowledgeable guide provided fascinating insights into the history and architecture of the historic landmarks.*

Jet Lag – uzoq masofali parvozdan so'ng bir necha vaqt zonalarini kesib o'tish natijasida yuzaga keladigan charchoq va chalkashlik hissi, organizmning ichki soati mahalliy vaqt bilan mos kelmaydi: *After their long-haul flight from Tokyo to Paris, the family struggled with jet lag, feeling exhausted and disoriented as they adjusted to the new time zone.*

Souvenir (Sovg'a) – sayohatchilar tomonidan safarlarini eslatib turuvchi, odatda sayohat qilingan joyning madaniyati yoki diqqatga sazovor joylarini aks ettiruvchi buyum: *While exploring the markets of Istanbul, Maria picked up a beautiful handcrafted rug as a souvenir to remind her of the vibrant colors and rich culture of the city.*

Cruise (Kruiz) – katta kemada sayohat bo'lib, odatda turli portlarga to'xtab, yo'l davomida turar joy, ovqatlanish va ko'ngilochar dasturlarni taklif etadi: *The couple enjoyed a luxurious Mediterranean cruise, sailing from port to port and taking in the stunning coastal views, gourmet dining, and onboard entertainment.*

Shuningdek, hozirgi kunda boshqa tillardan kirib kelgan umumiste'moldagi turizm leksik qatlamiga o'zlashmalarni so'z va so'z birikmasi shaklida uchratishimiz mumkin. Turizm sohasi leksik tarkibida quyidagi terminlarning o'zbek tiliga to'liq o'zlashishi kuzatildi: *gid, diversifikatsiyalash, lider, resepsion, resepsionchi, turist, turizm, animatsiya, atraksion, menejment, destineishn, rouming, kovorking, ofis menejeri, investor, investitsiya, respondent, starter, operator, Spa, welnes, villa,*



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

kargo, dyuti-fri, tabldot, tranzit, butik-otel, brend, dayving, disneyland, VIP-servis va h.k.

Bu turdagi turizm terminlarining o'zbek tiliga o'zlashganini tasdiqlash uchun ularning shu til doirasida morfologik ko'rsatkichlarga bo'linishiga qarab ma'lum bir xulosaga kelish lozim bo'ladi.

Xulosa. Ingliz tilidagi turizm leksikasining etimologiyasini tahlil qilish barobarida ularning ko'pchiligi ingliz tiliga asosan fransuz, italyan, arab va fors tillaridan kirib kelganligiga guvoh bo'ldik. Misollar tahlilidan ma'lum bo'ldiki, boshqa tillardan o'zbek tiliga o'zlashgan ikki va undan ortiq komponentli terminlar ham uchraydi. Aytish joizki, bu tushunchalarni ixcham, qo'llashga qulay bo'lishini ta'minlash va yagona ifoda shakliga keltirish zaruratini yuzaga keltiradi. Masalan, "ekoturizm", "kulturizm", "agroturizm" (turizm sohasiga oid) kabi terminlar turizmning turli ko'rinishlarini ifodalaydi. Bu terminlar turizm sohasi mutaxassislariga turli xizmatlar va faoliyat turlarini aniqlashda qulaylik yaratadi va ularning aniq tushunilishi hamda qo'llanilishini ta'minlaydi.

Shunday qilib, turizm sohasidagi termin tizimining tadqiq qilinayotgan segmentida o'zbek tilining zaxirasidan hosil bo'lgan hamda boshqa tillardan o'zlashtirilgan terminlar mavjudligi leksik qatlamning barcha sathlarida bo'lgani kabi, ushbu soha terminologiyasining taraqqiyotida ham nihoyatda ahamiyatli hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'xati

1. Атажанова, З. М. The main sources of enriching English vocabulary in the course of historical development / З. М. Атажанова, А. П. Макашева, Тураш Дадиқбай. – Текст: непосредственный // Молодой ученый. – 2021. – № 4 (346). – С. 298-300. URL: <https://moluch.ru/archive/346/77762/>
2. Володина М.В. Терминологическая номинация и информационная картина мира // Научно-техническая терминология (научно-технический реферативный сборник). – М., 1996. Выпуск 1. – С.54-61.
3. Мирсагатова Д.У. Ўзбек темир йўл транспорти атамаларининг тематик гуруҳларини ўзига хос хусусиятлари // Academic research in educational science. Volume 2. Issue 12. 2021. ISSN:2181-1385.
4. Турсунов У., Мухторов Ж., Рахматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Лексикология. Фонетика. Морфология. – Тошкент.: Ўқитувчи, 1975. – Б. 46.
5. Акбарходжаева Ф.А. Тиббиёт соҳасига оид ўзлашма терминларнинг лингвостатистик тадқиқи. (лотин тилидан рус ва ўзбек тилларига ўзлашган терминлар мисолида): Фил.фан.б. фалсафа д-ри (PhD) дисс. Тошкент, 2022. – Б. 23.
6. Шербоев Н. Инглиз тилидаги шарқ тилларидан ўзлашган сўзларнинг семантик хусусиятлари // Экономика и социум. № 6 (86), 1.2021. – Б. 257.
7. Айрапетян, А. Г. Испанские заимствования в английском языке / А. Г. Айрапетян, А. А. Пронькина. - Текст: непосредственный // Молодой ученый. - 2016. - № 7 (111). - С. 1132-1134. - URL: <https://moluch.ru/archive/111/27670/> (дата обращения: 19.03.2023).



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

8. Элдамов А.М. Итальянское заимствования в современном английском языке. Текст. Автореферат. УДК 802.0:801.316.3. Россия.1984.
9. Мжельская О.К. Английский язык как источник реципиент лексических заимствований //Филологические науки. УДК 811.111. Россия 2017. – С. 60-64.
10. Соколова А.А. Французское заимствование в английском языке //Цифровая наука,УДК 81.№ 4.Россия 2021. – С. 21-24.